Qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor Xojasov Allamurat Seytmuratovichning ilmiy, pedagogik va jamoatchilik faoliyatidan qisqacha ocherk



Xojasov Allamurat Seytmuratovich 1957 yil 3 noyabrda Chimboy tumani ziyoli oilasida tug‘ilgan. Millati qoraqolpoq, ma’lumoti oliy. O‘zbekiston Liberal – demokratik partiyasi a’zosi. 1981-yili Nukus Davlat universitetini “Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti” fakultetining agronomiya mutaxasissligini imtiyozli diplom bilan tamomlagan. Umumiy mehnat faoliyati 45 yil. Institutimizda 2003 yildan buyon samarali faoliyat olib bormoqda.

A.Xojasov kadrlar tayorlash milliy dasturini hayotga tadbiq etishda o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda. 45 yillik ilmiy-pedogogik faoliyati davomida 20 dan ortiq magistr, 50 dan ortiq bakalavrga ilmiy rahbarlik qilgan.

A.Xojasov ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari bo’yicha respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar to’plamlari va jurnallarda 200 dan ortiq maqolalar va shulardan 50 dan ortiq chet davlatlarda, nufuzli jurnallarda e’lon qilingan, 2013-yil “Yer kadastri va tuproq bonitirovkasi” fanidan amaliy mashg’ulotlar qo’llanmasi chop etildi. 3 ta darslik, 15 ta o’quv va uslubiy qo’llanmalari bosmadan chiqarilgan.

A.Xojasov 2018, 2022 va 2025 yillarida O‘zbekiston xalqaro ko‘rgazma markazi (Toshkent shahri)da o‘tkazilgan Innovatsion haftalik (InnoWeek)larda ilmiy-tadqiqot ishlarining natijasida ishlab chiqilgan ishlanmalari bilan faol ishtirok etib kelmoqda.

A.Xojasov 1987-1988- yillari O’zbekiston Paxtachilik ilmiy tadqiqot institutining aspiranturasini sirttan o’qigan va “Amudaryoning quyi qismida

quyilish joyida o’tloqli allyuvial tuproq holatini bedaning hosildorligini suvga talabchanligi va sug’orish rejimi suvning joylashish doimiyligiga bog’liqligi” mavzusi bo’yicha 1993-yili qishloq xo’jaligi fanlari nomzodi dissertatsiyasini himoya qilib chiqdi, 1991-yili Nukus davlat universiteti “Dehqonchilik” kafedrasi o’qituvchisi, 1991-1992-yillarda Nukus Davlat universiteti “Agrokimyo va tuproqshunoslik” kafedrasi assistenti, 1992-1995-yillarda Toshkent Davlat Agrar universiteti Nukus filiali “Agrokimyo va tuproqshunoslik” kafedrasi assistenti, 1995-2003-yillarda Nukus Davlat universiteti “Agronomiya” kafedrasi docent va o’quv ishlari bo’yicha dekan o’rinbosari, 2003-2004- yillarda Toshkent Davlat Agrar universiteti Nukus filiali “Agronomiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti dekani, 2004-2005-yillar Toshkent Davlat Agrar universiteti Nukus filiali “Agronomiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti o’quv ishlari bo’yicha dekan o’rinbosari, 2005-2007-yillarda Toshkent Davlat Agrar universiteti Nukus filiali “O’simlikshunoslik, dehqonchilik va melioratsiya asoslari” kafedrasiii docent, 2007-2016-yillarda Toshkent Davlat Agrar universiteti Nukus filiali o’quv metodika bo’limi boshlig’I, 2016-2018-yillarda Toshkent Davlat Agrar universiteti Nukus filiali “Agronomiya” fakulteti dekani, 2018-2019-yillarda Toshkent Davlat Agrar universiteti Nukus filiali “Melioraciya va suv xojaligi “ kafedrasi docent, 2019-2022-yillar oralig’ida Toshkent Davlat Agrar universiteti Nukus filiali Sirtqi, maxsus sirtqi bo’lim boshlig’I lavozimlarida xizmat qilgan. 2022-yildan hozirgi kunga qadar “Dehqonchilik, qishloq xo’jaligi ekinlari seleksiyasi va urug’chiligi” kafedrasi dotsenti lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

A. Xojasov mehnatlarini hisobga olib 2012-yil “Qoraqolpog’iston Respublikasi xalq ta’limi a’lochisi” ko’krak nishoni va 2013-yil O’zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo’jaligi vazirligining faxriy yorlig’I, 2021-yili “O’zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30-yilligi” esdalik nishoni bilan taqdirlangan.

A.Xojasov yetuk olim, jonkuyar ustoz, jamoa ishlarida faol va kamtarin, vijdonli, o‘z sohasining bilimdon mutaxassisi sifatida respublikamiz qishloq xo‘jaligi ravnaqi yo‘lida va yosh avlodni tarbiyalashda o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori: **M.Davletmuratov**

Kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi: **M.Berdimuratov**